

Dunyoda koronavirus tarqalishi bilan bog'liq vaziyat to'g'risida

Oxirgi sutka davomida Sars-CoV-2 infeksiyasi bilan kasallanishning 208 ming yangi holati aniqlandi, oldingi kunlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 290 mingni tashkil etgan, ya'ni koronavirus tarqalishi sur'ati qariyb 28 foizga pasaygan. Sog'ayganlar ulushi 62,8 foizdan 63 foizga oshdi. Braziliyada so'nggi 2 oy ichida kunlik infeksiya yuqishining eng past ko'rsatkichi qayd etildi - 18 ming kishi. Biroq, Hindiston va AQSHda vaziyat haliyam tashvishli.

Statistika

"Worldometers" ma'lumotiga ko'ra, 4-avgust holatiga dunyoda bemorlarning umumiy soni 18 million 443,4 ming kishini tashkil etdi, 697,1 ming kishi vafot etgan.

Kasallanish holati eng ko'p qayd etilgan davlatlar: AQSH - 4 million 862,1 ming, Braziliya - 2 million 751,6 ming va Hindiston - 1 million 855,3 ming kishi.

O'lim holati: AQSH - 158,929, Braziliya - 94,702, Meksika - 48,012, Buyuk Britaniya - 46,210, Hindiston - 38,971.

COVID-19dan davolanganlarning umumiy soni 11 672 917 kishiga yetdi, bu umumiy miqdorning 63,2 foizini tashkil etadi.

Markaziy Osiyodagi vaziyat

Qozog'istonda kasallanganlarning umumiy soni 92,662 nafar, 62 511 kishi sog'aygan, 793 fuqaro vafot etgan.

"Fergana.agency" xabar berishicha, 2-avgustdan boshlab mamlakat Sog'liqni saqlash vazirligi koronavirus va pnevmoniya bo'yicha statistikani alohida e'lon qila boshladi. Biroq, statistika ma'lumotlarini taqdim etayotgan mahalliy manbalar va dunyo statistikasi Qozog'iston bo'yicha raqamlarni pnevmoniya holatini hisobga olmagan holda ko'rsatmoqda.

Qirg'izistonda ushbu kasallikka chalinganlarning umumiy soni 37 129 ga yetdi, 27 927 kishi tuzaldi, 1420 nafar fuqaro vafot etdi.

"Knews.kg" ma'lumotlariga ko'ra, 17-iyuldan boshlab mamlakatda COVID-19 ning laboratoriya tomonidan tasdiqlangan va klinik-epidemiologik holatlarini birgalikda hisobga olish joriy etilgandan so'ng, Sog'liqni saqlash vazirligi quyidagi bir qator muhim ma'lumotlarni e'lon qilmay qo'ydi:

- jins, yosh, holati qayd etilgan hamda shifoxonalar kesimidagi o'lim holati;
- tumanlar va shaharlar kesimida yangi raqamlar;
- yosh va jins kesimida yangi holatlar;
- bir sutkada COVID-19 bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar soni;
- statsionarda davolanayotgan bemorlar ahvoli to'g'risida ma'lumot: og'ir ahvoldagi, jonlantirish bo'limidagi bemorlar soni va uyda o'zini o'zi yakkalash tartibiga o'tganlar miqdori.

Tojikistonda kasallanganlarning umumiy soni 7538 ni tashkil etadi, 6317 kishi tuzaldi, 61 kishi vafot etdi.

Yevrosiyo barqarorlik va rivojlanish jamg'armasi (YEBRJ) Tojikistonga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va pandemiya sharoitida moliyaviy sektor barqarorligini ta'minlash uchun 20 yil muddatga yillik 1 foizli 50 million kredit beradi.

TASS xabariga ko'ra, bu haqda Rossiya Federatsiyasi moliya vaziri, YEBRJ kengashi raisi Anton Siluanov ma'lum qildi. Bundan tashqari, uning so'zlariga ko'ra, Jamg'arma kengashi tomonidan grantlarni moliyalashtirish maqsadida loyihalarni saralash bo'yicha navbatdan tashqari tanlov o'tkazish to'g'risida

qaror qabul qilindi. Ushbu mablag'lar sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltiriladi. Jamg'armaga a'zo davlatlarga koronavirus tarqalishiga tezkor javob qaytarish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beriladi. Grantlar kishi boshiga yalpi milliy daromadi past darajada bo'lgan davlatlarga taqdim etiladi.

Dunyodagi so'nggi tendensiyalar.

Kuni kecha JSST erta tashxis qo'yish, o'lim darajasi va tuzalib ketganlar soni to'g'risida bir qator bayonotlar e'lon qildi. Tashkilot eksperti M. Van Kerkxovening fikricha, ayni paytda odamlarning 10 foizdan kamrog'i seropozitivdir, ya'ni ular qaysidir payt kasallikni yuqtirishgan va oyoqda turib o'tkazgan. Tibbiyot xodimlari infeksiya yuqtirishga ko'proq moyil bo'lganligi sababli bu toifada ko'rsatkichlar yuqori.

Shuningdek, ekspert koronavirus infeksiyasidan o'lishning haqiqiy darajasi rasmiy statistika bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichdan kamroq bo'lishi mumkinligini ta'kidladi. Hozir o'lim darajasi 3,8 foizdan ko'proqni tashkil etadi. Ayni payt ushbu mavzu bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Van Kerkxove sa'y-harakatlarni infeksiya yuqtirishning oldini olishga safarbar etishga chaqirdi.

Shu nuqtayi nazardan, uning so'zlariga ko'ra, erta tashxis qo'yishga e'tibor berish lozim. Ekspress-testlar yaratilib, ularni ishlab chiqarish ko'lami butun dunyo bo'ylab oshayotgani insonga optimistik kayfiyat bag'ishlaydi.

JSSTning ikki nafar mutaxassisidan iborat ekspert guruhi Xitoyda o'z ishini yakunladi. TASS xabar berishicha, ularning faoliyati natijalari koronavirusning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tashkilot rahbari Tedros Gebreyeses dushanba kuni o'tkazilgan brifingda ayni mazuga to'xtalarkan, JSST va Xitoy ekspertlari tomonidan "JSST boshchiligidagi xalqaro guruh tadqiqotlari va faoliyati dasturi to'g'risida"gi hujjat ishlab chiqilgani ilg'or guruh missiyasi natijasidir, deya ta'kidladi.

U epidemiologik tadqiqotlar Uxan shahrida boshlanishini ma'lum qildi. Maqsad COVID-19ning erta holatida infeksiya ehtimoliy manbasini aniqlashdan iborat. Ish jarayonida paydo bo'ladigan dalillar va farazlar keyingi uzoq muddatli tadqiqotlarga asos bo'ladi.

COVID-19ga qarshi vakcina va dorilar ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar, tadqiqotlar

JSST bir qator nufuzli OAVning yirik davlatlar ishlab chiqilayotgan vaksinalarning birinchi partiyasini buyurtma qilib qo'ygani va vaksinalar boshqa davlatlarga yetmay qolishi mumkinligi haqidagi xabarlariga javob berdi. Tashkilot xabar berishicha, COVAX mexanizmi barcha mamlakatlar uchun COVID-19 ga qarshi vaksinani olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan.

TASS xabariga ko'ra, JSSTning rasmiy vakili T. Yazarevich COVAX barcha mamlakatlar uchun samarali vaksinani izlash jarayonini tezlashtiradi, deb ta'kidlagan. Maqsad butun dunyo COVID-19ga qarshi vaksinadan tez, adolatli va teng huquqli foydalana olishini kafolatlash. Bundan tashqari, 2021-yil oxiriga qadar vaksinaning 2 milliardga yaqin dozasini adolatli taqsimlash uchun COVAX ishlab chiqarish quvvatlari yo'lga qo'yilishini qo'llab quvvatlaydi va xaridlarni amalga oshiradi. Hozircha 75 ta davlat COVAXga qiziqish bildirgan.

20-iyul kuni JSST rahbari koronavirusga qarshi bo'lajak vaksinani olish imkoniyati nafaqat badavlat odamlarda, balki hammada bo'lishi kerakligini aytib o'tdi.

CNBS ma'lumotiga ko'ra, Amerikaning "Regeneron Pharmaceuticals" biotexnologiya kompaniyasi koronavirusga qarshi vaksinani hayvonlarda sinab ko'rish muvaffaqiyatli o'tganini e'lon qilgan. Koronavirusga qarshi ikkita antitanacha asosida tayyorlangan zardob hayvonlarda tekshirilganda "virusli infeksiya faoliyati, deyarli, to'xtatdi". Tajriba 36 ta rezus makaka va 50 ta olmaxonda o'tkazildi. Shu bilan birga, kompaniya hayvonlarda o'tkazilgan tajriba ushbu vosita odamlarga ham muvaffaqiyatli ta'sir qilishini kafolatlamasligini qo'shimcha qildi.

Eslatib o'tamiz, iyul oyida "Regeneron Pharmaceuticals" kompaniyasi AQSH Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar vazirligidan koronavirus infeksiyasini davolash va uni oldini olishga mo'ljallangan eksperimental vositani ishlab chiqarish va yetkazib berish uchun 450 million dollarlik shartnoma olganini e'lon qilgan. Ayni vosita yaxshi natija bersa, kompaniya davolash uchun 70.000 dan 300.000 gacha va infeksiyaning oldini olish uchun 420.000 dan 1.3 milliongacha doza yetkazib berishni rejalashtirmoqda.

RIA-Novosti xabar berishicha, Rossiya Braziliya va Hindistonda koronavirusga qarshi vaksina ishlab chiqarish bo'yicha muzokaralar olib bormoqda. Rossiyada ishlab chiqilgan vaksinani olish uchun 20 dan ortiq mamlakatdan so'rov kelib tushdi. Shu bilan birga, RTTIJ rahbari K. Dmitriyev "Avifavir" dori vositasi 15 dan ortiq davlatga, asosan Yaqin Sharq, Janubiy Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlariga yetkazib berilishini ma'lum qildi.

COVID-19 ning salbiy oqibatlarini kamaytirish va karantindan chiqish choralari

Germaniyaning "Tagesschau" portali xabariga ko'ra, Norvegiya kruiz transportida harakatlanish bo'yicha cheklovlarni joriy qilmoqda. Mamlakat hukumati bortida 100 dan ortiq yo'lovchi bo'lgan kemalarga Norvegiya portlarida to'xtashni taqiqlaydi hamda yo'lovchilar va ekipajning qirg'oqqa chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Ushbu qaror mamlakatning eng yirik kruiz kompaniyasi - "Hurtigruten"ning "Roald Amundsen" kemasida koronavirus paydo bo'lganidan keyin qabul qilindi.

Dushanba kuni "Hurtigruten" "Roald Amundsen" kemasida koronavirus tarqalishi sababli ekspeditsiya kruizlarini nomuayyan muddatga to'xtatishi haqida ma'lum qildi. O'tgan hafta ekipajning kamida 36 nafar a'zosida yangi koronavirus aniqlangan.

"Azernews.az" ta'kidlashicha, Ozarbayjon hukumati 13 ta shahar va hududda qat'iy karantin talablarini 31-avgustga qadar uzaytirgan. Cheklovlar bunday hududlarda dam olish kunlari jamoat transporti harakatini to'xtatishni nazarda tutadi. Oziq-ovqat do'konlari va dorixonalar, restoran va kafe, muzey va ko'rgazma zallaridan tashqari yirik savdo markazlari yopiq bo'ladi. Shuningdek, barcha ommaviy tadbirlar, jumladan sport musobaqalari, ochiq havoda o'yinlar o'tkazish taqiqlanadi.

Shu bilan birga, yuqtirganlar soni kamayishini hisobga olgan holda, hukumat qat'iy karantin amal qilgan shahar va tumanlarda bir qator yumshatishlarni joriy qildi. Xususan, uydan chiqish uchun SMS-ruxsat olish tizimi bekor qilinadi. Bundan tashqari, belgilangan qoidalarga rioya qilish sharti bilan plyajlarga borishga ruxsat beriladi.